

PARRANDACHILIK MAHSULOTLARI VA MAHSULDORLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI



doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a75

Bobomuratov Imomkul Islamovich -

Termiz davlat universiteti

Biznes boshqaruvi va statistika kafedrasi

katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi kunda parrandachilik dunyoning aksariyat mamlakatlarida qishloq xo'jaligining eng dinamik va muhim tarmog'i bo'lib, yuqori sifatli parhez oziq-ovqat mahsulotlari - tuxum va go'sht bilan ta'minlaydi. Shu bois hozirgi kunda mamlakatda parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini va parrandalar mahsuldorligini oshirishni rag'batlantirish bo'yicha hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Mamlakat aholisining mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish asosan qishloq xo'jalik tarmoqlarini, jumladan, parrandachilikni rivojlantirish darajasiga bevosita bog'liq. Maqolada parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi va nisbatlari tahlil qilingan. Surxondaryo viloyati va respublika darajasida parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi va o'sish sur'atlari o'zaro taqqoslangan. Bundan tashqari viloyat tumanlari kesimida parrandalar soni va parrandachilik mahsulotlarini yetishtirish darajasi o'rganilgan. Shuningdek, tuxum mahsuldorligi va go'sht ishlab chiqarish mahsuldorligini aniqlash ko'rsatkichlari, parrandalarning tirik vazni o'zgarishi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, statistika, parrandachilik, mahsulot, tuxum, go'sht, mahsuldorlik, parrandalar bosh soni, miqdoriy ko'rsatkichlar, sifat ko'rsatkichlar, tuxum berish davri, ozuqa xarajatlari.

ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОДУКЦИИ ПТИЦЕВОДСТВА И ПРОДУКТИВНОСТИ

Бобомуратов Имомкул Исламович -

Старший преподаватель кафедры

Управления бизнесом и статистики

Термезского государственного университета

Аннотация. В настоящее время птицеводство является наиболее динамичной и важной отраслью сельского хозяйства в большинстве стран мира, дающей высококачественные диетические продукты питания – яйца и мясо. Поэтому разработаны правительственные постановления и нормативные документы, направленные на стимулирование производства продукции птицеводства и повышение производительности птицеводства в стране. Удовлетворение потребностей населения страны в качественной и дешевой продукции, производимой в местных условиях, во многом напрямую зависит от уровня развития отраслей сельского хозяйства, в том числе птицеводства. В статье анализируются уровни и пропорции производства продукции птицеводства. Уровень производства и темпы роста производства продукции птицеводства сравнивались на уровне Сурхандарьинской области и республики. Кроме того, изучены поголовье птицы и уровень производства продукции птицеводства в регионах области. Также описаны методы определения показателей яичной производительности и производительности мясной продукции, методы расчета показателей изменения живой массы птицы.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, статистика, птицеводство, продукция, яйцо, мясо, производительность, поголовье птицы, количественные показатели, качественные показатели, период яйценоскости, кормовые затраты.

ECONOMIC AND STATISTICAL ANALYSIS OF POULTRY PRODUCTION AND PRODUCTIVITY.

Bobomuratov Imomkul Islamovich -

Termez State University

Senior Lecturer of the department

Business management and statistics

Abstract. Currently, poultry farming is the most dynamic and important branch of agriculture in most countries of the world, providing high-quality dietary products-eggs and meat. Therefore, government regulations and regulations are currently being developed to encourage an increase in the volume of poultry production and poultry productivity in the country. More complete satisfaction of the country's population's needs for high-quality and affordable locally produced products largely depends on the level of development of agricultural sectors, including poultry farming. The article analyzes the levels and proportions of poultry production. At the level of the Surkhandarya region and the republic, the level and growth rates of poultry production are comparable. In addition, the number of poultry and the level of poultry production in the context of regional districts were studied. Indicators for determining egg production and productivity of meat livestock, methods for calculating indicators of changes in live weight of poultry are also described.

Keywords: food security, statistics, poultry production, production, eggs, meat, productivity, poultry population, quantitative indicators, quality indicators, economic indicators, egg production period, feed costs

Kirish. Butun dunyoda tobora kengayib bora-yotgan global hodisa COVID-19 pandemiyasi fonida dunyo hamjamiyatida kuzatilayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, turli davlatlarda namoyon bo'-layotgan siyosiy va demografik vaziyat iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga, ayniqsa, dunyo aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalari ga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqda. Mamlakat aholisining mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini to'-laroq qondirish asosan qishloq xo'jalik tarmoqlarini, jumladan, parrandachilikni rivojlantirish darajasiga bevosita bog'liq

FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda jahon bo'yicha 132 mln tonna parranda go'shti va 1,5 trln donadan ortiq (86,9 mln.tonna) tuxum ishlab chiqarilgan bo'lsa, parranda go'shti ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 4-6%-ni, tuxum ishlab chiqarish esa 1,5 - 2% ni tashkil etdi [17].

Jahon bo'yicha parranda go'shti jami yetishtirilgan go'sht hajmida 2020-2021-yillarda 39 foizdan ortiqni tashkil etdi va go'sht ishlab chiqarish hajmida yetakchi o'ringa chiqdi. Undan keyin cho'chqa go'shti 32%-ni tashkil etgani holda oldingi yillarda yetakchi o'rinni egallab kelgan edi. Parranda go'shti ishlab chiqaruvchi yetakchi mamlakatlar sifatida AQSh (20 mln t), Xitoy (15 mln t), Braziliya (14 mln t)ni keltirish mumkin.

Tuxum ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlar sifatida Xitoy (38,2%), Hindiston (8%), Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (6,8%)ni keltirib o'tish mumkin. Bozor munosabatlari mamlakatlar xo'jalik yuritish tizimini yanada takomillashtirib borishni, iste'molchilar talablarini hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish raqobatbardoshligini rag'batlantirib borish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Parrandachilik mahsulotlari va mahsulorligini iqtisodiy-statistik tahlil qilish bilan qatorda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Ye.Darde tomonidan chorvachilik mahsulotlari va mahsulorligini statistik tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda vaqt qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkichlari, vaqt qatorlarini analitik tekislash, vaqt modellarini tuzish va uni tahlil qilish usullaridan keng foydalanilgan [7].

V.N.Afanasev, A.I.Markovalar parrandachilik mahsulotlari va mahsulorligini o'rganishda ularni ikki guruhga olib o'rganadi: parranda mahsulotlarini bevosita parvarishlash bilan bog'liq mahsulotlar (tuxum, parranda go'ngi) va parrandalarni so'yish orqali realizatsiyasi bilan bog'liq mahsulotlar (parranda go'shti, par, pat) ko'rsatkichlarini aniqlaydi [4].

N.Bikova tomonidan mamlakat va hududiy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda parranda mahsulotlari va mahsulorligining ahamiyatini o'rganish uchun statistik usullardan keng foydalanilgan[5].

L.Gulyayev tomonidan parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini dinamik, monografik va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanilgan[6]. Muallif parrandachilik sohasida mahsulotlarni yetishtirish dan tortib uni realizasiya qilishgacha bo'lgan jarayonlarga qamrab oluvchi klaster tizimidan keng foydalanish hamda parrandachilik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bu tarmoqni rivojlantirishning zaruriy omili sifatida qaraydi.

Mahalliy olimlardan X.R.Raxmankulov Surxondaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlari tan-narxini kamaytirish va xo'jaliklar rentabellik darajasini oshirish masalalarini o'rganishda tipologik va analitik guruhlash, dinamik, taqqoslama va monografik tahlil usullaridan foydalanilgan. [9].

V.I.Nechayev Rossiya Federatsiyasida parrandachilik mahsulotlari bozorining hozirgi holati va rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarini statistikaning asosiy usullari yordamida tahlil qilgan. Mazkur tahlilda parrandachilik sohasidagi xo'jaliklarning uch toifasi: qishloq xo'jaligi korxonalar, aholi xo'jaliklari va dehqon (fermer) xo'jaliklari yillar kesimida taqqoslama tahlili amalga oshirilgan[8].

A.Xasanov chorvachilik mahsulotlari va mahsulorligini tahlil qilishda vaqt qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkichlari, vaqt modellarini tuzish, mavsumiylig va tasodifiy omillarini ta'sirini aniqlash, o'rtacha taqqoslash hamda korrelyatsion regression usulardan keng foydalangan[11].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasini parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va mahsulorligini oshirish bo'yicha mamlakatimiz hamda xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy ishlari natijalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va mahsulorligini oshirishga oid farmon va qarorlari tashkil etadi. Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va mahsulorligini oshirish modellarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, O'zbekistonda parrandachillikni yanada rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlarini amaliyotga kiritishda katta turki bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan ushbu tadqiqotning metodologik jihatni mamlakatimizda innovatsion rivojlanish g'oyalarini amaliyotga joriy etish yo'llarini asoslashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Mamlakat mintaqalari turlicha yer, moliyaviy va mehnat resurslariga ega ekanligi, turli xil mulkchilik va boshqaruv shakllarini - korporatsiyalar, qishloq xo'jaligi kompaniyalari, moliyaviy va sanoat guruhlari, uyushmalar va hamkorlik, kooperatsiya asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda parrandachilikni rivojlantirish borasida bir qator hukumat qarorlari va me'yoriy-

STATISTIKA

huquqiy hujjatlar qabul qilindi, ular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2018-yil 13-noyabr-dagi "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4015 sonli qarori hamda 2021-yil 14-iyundagi "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5146-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonini keltirib o'tish mumkin.

Natijada, respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, parrandachilikni rivojlantirish va tarmoqning ozuqa bazasini yanada mustahkamlash hamda parrandachilik yo'nalishidagi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi shakllantirildi.

O'zbekistonda 2021-yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda parranda go'shti ishlab chiqarish hajmi 221 ming tonnani, tuxum ishlab chiqarish – 7788 mln. donani tashkil etdi.

Parranda tuxumi oziq moddalar va boshqa moddalarning yuqori muvozanati tufayli to'yimli oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va minerallardan iborat noyob parhez mahsulotdir.

Tuxum yetishtirishda asosan tovuqlar, sesakalar va bedanalardan foydalilanadi. Go'sht mahsulotlari kurka, o'rdak, g'oz, kurka, tuyaqushlardan olinadi. Parranda go'shti ham yuqori ozuqaviy va parhezlik xususiyatlari ega.

Parranda go'shtining tarkibi asosan yuqori sifatli oqsillardan iborat. Parranda go'shtiga ishlov berishda qadoqlangan go'sht, kolbasa, sosiska, dudlangan go'sht, pashtet, pazandachilik mahsulotlari (kotlet, chuchvara va boshqalar), konservalar olinadi.

G'ozlar va mushakdor o'rdaklarni maxsus boqish orqali qimmatbaho gastronomik mahsulot - yog'li jigar olinadi.

Bundan tashqari, parrandalardan qo'shimcha mahsulotlar (pat, par), (parranda go'ngi) olinadi. Quritilgan shaklda parranda go'ngi chorvaga ozuqa yoki o'simliklar uchun qimmatbaho o'g'it sifatida ishlataladi. Parrandalarni inkubatsiya qilish va so'yish, chiqindilari esa juda to'yimli ozuqa sifatida qayta ishlanadi.

1-jadval

2017-2021 - yillarda O'zbekiston va Surxondaryo viloyatida parranda go'shti ishlab chiqarish dinamikasi [16].

Ko'rsatkichlar	Yillar					2017-2021-yillarda o'rtacha o'sish sur'at %	
	2017	2018	2019	2020	2021		
Parranda go'shti							
O'zbekiston Respublikasi							
Mol va parranda go'shti, tirik vaznda ming tonna	2286,8	2430,5	2473,6	2519,6	2635	103,6	
Shu jumladan, parranda go'shti ming tonna	133,5	173	205,2	181,1	221	113,4	
Jami yetishtirilgan go'sht hajmida parranda go'shtining ulushi %da	5,84	7,12	8,30	7,19	8,39	109,5	
Surxondaryo viloyati							
Mol va parranda go'shti, tirik vaznda ming tonna	177,5	184,1	186,5	193,6	201,5	103,2	
Respublika go'sht ishlab chiqarish hajmida viloyatning ulushi %da	7,76	7,57	7,54	7,68	7,65	99,6	
Parranda go'shti, tirik vaznda ming tonna	2,7	2,5	1,6	2,0	2,3	96,1	
Jami yetishtirilgan go'sht hajmida parranda go'shtining ulushi %da	1,55	1,38	0,86	1,04	1,16	92,9	
Respublika parranda go'shti ishlab chiqarish hajmida viloyatning ulushi %da	2,06	1,47	0,78	1,12	1,06	84,6	

1-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rish mumkinki, 2017-2021-yillarda O'zbekistonda mol va parranda go'sht ishlab chiqarish hajmi tirik vaznda 2286,8 ming tonna ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 2635 ming tonnani etib, bu davrlar ichida o'rtacha o'sish sur'ati 103,6%ni tashkil etgan. Parranda go'shti tirik vaznda 2017-yildagi 133,5 tonnadan 221 tonnaga yetgan. Respublika bo'yicha parranda go'shtining jami ishlab chiqarilgan go'sht hajmidagi ulushi o'rganilayotgan davrlar ichida 5,84 %dan 8,39 %ga yetgan.

Taqqoslash uchun Surxondaryo viloyatida mol va parranda go'shti hajmi tirik vaznda 177,5 ming tonna ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 201,5 ming tonnani, o'rtacha o'sish sur'ati o'rganilayotgan davrlar ichida 103,2 %ni tashkil etgan. Respublikada o'rtacha o'sish sur'ati bilan bir xil. Surxondaryo viloyatining respublikaga mol va parranda go'shti ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2017-yildagi 7,76 %da, keyingi oraliq davrlardagi ulushi biroz kamayib 2021-yilda 7,65%ni tashkil etdi.

Parranda go'shti ishlab chiqarish hajmi viloyatda barcha toifadagi xo'jaliklarda 2017-yildagi 2756 tonnadan keyingi davrlarda sezilarli kamayib, 2021-yilda 2300 tonnani, bu davrlar ichida o'rtacha o'sish sur'ati 96 %ni tashkil etgan. Tahlildan parranda go'shti ishlab chiqarish hajmi kamayish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida parranda go'shti ishlab chiqarishning respublika hajmida Surxondaryo viloyati ulushining 2017-yildagi 1,5 %dan 2021-yilda 1 % atrofida bo'lismiga olib kel-

di. Jami yetishtirilgan mol va parranda go'sht hajmida parranda go'shtining ulushi viloyatda mos ravishda 2 %dan 1 %dan ozroq oshiqni tashkil etdi. Respublika ko'rsatkichidan 7-8 marta kam.

Tuxum ishlab chiqarish hajmi 2017-yilda 6332,7 mln donani, 2021-yilda esa 7788 mln donani tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 1455,3 mln dona tuxum ko'p ishlab chiqarilgan. O'r ganilayotgan davrlar ichida o'rtacha o'sish sur'ati 105,3% ni tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval

**2017-2021-yillarda O'zbekiston va Surxondaryo viloyatida parranda tuxumi
ishlab chiqarish dinamikasi (mln dona)[16]**


Ko'rsatkichlar	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2017-2021 yillarda o'rtacha o'sish sur'ati %
O'zbekiston respublikasi	6332,7	7459,3	7771,2	7781,2	7788	105,3
Surxondaryo viloyati	334,0	463,8	513,0	524,7	527,5	112,1
Respublikadagi ulushi %da	5,27	6,22	6,60	6,74	6,77	106,5

Surxondaryo viloyatida 2017-yilda 334 mln dona tuxum ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2021-yilda 527,5 mln dona tuxum ishlab chiqarilgan va 2017-yilga nisbatan 193 mln donaga ko'pdir. Bu davrlar ichida tuxum ishlab chiqarish hajmining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 112,1 %ni va respublikada tuxum ishlab chiqarish hajmida viloyatning ulushi 2017-yildagi 5,27%dan 2021-yilda 6,77 %ga o'zgargan.

Surxondaryo viloyatida tuxum yetishtirilishini tumanlar kesimida o'rganganimizda Muzrabot,

Denov, Jarqo'rg'on, Termiz tumanlari yetakchi o'rin egallaydi. Parranda go'shti yetishtirilishda esa Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on tumanlarining ulushi kattaligini ko'r shimiz mumkin. Parranda go'shti va tuxumi yetishtiruvchi tumanlarda viloyatning boshqa tumanlariga qaraganda parrandalar soni ko'pligi bilan ajralib turadi. Parranda mahsulotlarini ko'paytirishda parrandalar soni muhim rol tutadi. Shu bilan birga parranda mahsulorligi oshirish ham zarur (1-rasm).


**2021-yilda Surxondaryo viloyati tumanlarining parrandachilik
mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi %**




**1-rasm. Surxondaryo viloyati tumanlarida parrandachilik mahsulotlarini ishlab
chiqarishdagi ulushi % [16]**

Parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda uning mahsulorligi muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga ulani hisoblash turli obektlariga ko'ra farqlanadi. Parrandalarni parvarishlashda tuxum mahsulorligi (tuxum ishlab chiqarish)ni hisobga olishning guruqli va individual usullari qo'llaniladi.

Parrandachilik fabrikalarida tuxum ishlab chiqarish bo'yicha tuxum mahsulorligini hisobga olishda guruhli usuldan foydalilanadi. Tuxum mahsulorligini hisobga olish uchun kundalik ravishda parrandalar bosh soni harakati, kunlik ishlab chiqarilgan tuxum miqdori, tuxum mahsulorligi foizini maxsus hisobga olish shakllaridan foydalilanadi.



2-rasm 2010-2021-yillarda Surxondaryo viloyatida parrandachilik mahsulotlari yetishtirishda Respublikadagi ulushining o'zgarishi



3-rasm 2021-yilda Surxondaryo viloyati tumanlarining parrandalar sonidagi ulushi %.

Hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, yil) uchun o'rtacha tuxum mahsuldorligi (S) aniqlanadi:

$$S = \frac{Y_{at}}{B_p} \quad (1)$$

bu yerda Y_{at} - hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, yil) davomida sex bo'yicha tuxumlarni yalpi ishlab chiqarish hajmi, dona; ;

\bar{B}_p - hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, yil) davomida sexdagi parrandalarning o'rtacha soni, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\bar{B}_p = \frac{\Sigma PB}{K_k} \quad (2)$$

ΣPB - hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, yil)ning har bir kuni uchun parrandalarning jami bosh soni;

K_k - hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, yil)ning davomiyligi, kun.

Ba'zan tuxum ishlab chiqarish bo'yicha parrandachilik fermalarida davr boshidagi mayjud tuxum qo'yuvchi parrandalarning tuxum qo'yish qobiliyati (S) aniqlanadi:

$$S = \frac{Y_{at}}{PB_{yb}} \quad (3)$$

Bu yerda PB_{yb} -joriy davr 1-yanvar holatidagi parrandalarning bosh soni.

Tuxum mahsuldorligidan tashqari, tuxumlarining o'rtacha vazni mos ravishda guruhli va individual usullardan foydalilanildi. Guruhli usulda hisobga olishda sexdagi parrandalarning, tuxumlarning partiyasi (100 dona) jaib etiladi va tuxumlarning umumiy vazni tuxumlar soniga bo'linadi. Individual usulda esa bir yoshga mansub bir siklga kiritilgan 5 va undan ortiq tuxumlar alohida - alohida o'lchanadi.

Tuxum mahsuldorligini baholashda ko'rsatkichlarning uchta asosiy guruhi hisobga olinadi:

- miqdoriy ko'rsatkichlar (tuxum mahsuldorligi (ma'lum vaqt oralig'ida parrandalardan olingan tuxum soni, dona), tuxum vazni, gramm);

- sifat ko'rsatkichlari (tuxumlarning morfoloqik va kimyoviy tarkibi);

- iqtisodiy ko'rsatkichlar (mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ozuqa xarajatlari, mehnat xarajatlari, uning to'liq qiymati).

Tuxum mahsuldorligi siklik jarayondir. Tuxum qo'yuvchi parrandalaning intervalsiz qo'yan tuxumlari soni tuxum qo'yish sikli deb ataladi. Siklarning miqdori irsiyatga bog'liq, u birdan bir necha o'nlab tuxumgacha bo'lishi mumkin. Sikllar o'rtasida mahsulotsiz kunlar soni orqali ifodalangan intervallar shakllanadi. Davr qanchalik uzoq bo'lsa, interval shunchalik qisqa bo'ladi. Tuxum mahsuldorligi intensivligi (I_{ya}) quyidagicha formula asosida aniqlanadi:

$$I_{ya} = \frac{K_{ya}}{K_k} * 100 \quad (4)$$

bu yerda K_{ya} -muayyan vaqt (hafta, oy, yil) oralig'ida tuxum qo'yuvchi parrandalar qo'yan tuxumlar soni, dona;

K_k -shu davr (hafta, oy, yil) uchun ozuqa kuni lari soni.

Parrandalarni obyektiv baholashda tuxum berish davrida olingan tuxum vazni miqdori hisoblanadi va u quyidagicha aniqlanadi.

$$K_{tv} = K_t * \bar{V}_t \quad (5)$$

Bu yerda K_t -muayyan davr (hafta, oy, yil) oralig'ida ona parrandalar tomonidan olingan tuxum miqdori

\bar{V}_t -ona parrandalar tomonidan qo'yilgan tuxumlarning o'rtacha vazni, kg

100 ta tuxumni yetishtirish uchun ozuqa xarajatlari quyidagi formulaga muvofiq hisoblanadi

$$X = \frac{X_0}{T} * 100 \quad (6)$$

Bu yerda X_0 - hisobga olish davrida ozuqa xarajatlari, ozuqa birligi;

T - hisobga olish davrida tuxum ishlab chiqarish hajmi, dona.

Mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ozuqa xarajatlari parranda yoshiga chambarchas bog'liq. Yosh ortishi bilan mahsulot birligi uchun ozuqa xarajatlari sezilarli ortadi. Tuxum berish davrining ikkinchi yilidan boshlab tuxum beruvchi parrandalardan tuxum olish miqdori kamayib, mahsulot birligiga ozuqa xarajatlari ko'payadi.

Tuxum mahsuldorligiga ikki omillar guruhi ta'sir qiladi: genetik va paratipik.

Birinchi guruh omillariga quyidagilar kiradi: parranda turi, zoti, nasli, irsiyati.

Ikkinchi guruh omillari: saqlash va oziqlantirish, parranda organizmining fiziologik holati, tuxum berish bosqichi, yoshi.

Tuxum mahsuldorligi parrandalarning turlari bo'yicha farqlanadi. Tovuqlar yiliga o'rtacha 220-250 (ba'zan 300 va undan ortiq) o'rdaklar 140-180, kurkalar 90-110, g'ozlar 30-40 donadan tuxum berishi mumkin.

Go'sht mahsuldorligini aniqlash guruhash usuliga asosan haftalik tortish asosida amalga oshiriladi. Bir parrandalaning o'rtacha vaznini aniqlash uchun hisobga kiritilgan parrandalarning umumiy

vaznini parrandalarning o'rtacha bosh soniga bo'linadi.

Go'sht mahsuldorligini baholash. Parrandalarning go'sht mahsuldorligi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tavsiflanadi va baholanadi:

1) miqdoriy: tirik vazn, yosh parrandalarning o'sish sur'ati, yosh va katta parrandalarni saqlash darajasi, mahsuldorlik;

2) sifat: go'sht shakli va tana go'shti ko'rinishi, so'yish mahsuldorligi va tana go'shti qismlarining nisbati, go'shtning kimyoviy tarkibi va biologik qiymati, uning ta'm sifatlari;

3) iqtisodiy: ishlab chiqarish birligiga ozuqa xarajatlari, ozuqani konvertatsiya qilish darajasi, mehnat xarajatlari, mahsulot tannarxi.

Parrandalarning tirik vazni ularni tortib ko'rish asosida aniqlanadi. U parranda turiga, jinsiga, zotiga, yoshiga va parrandalarning individual xususiyatlariga bog'liq. Eng katta vaznga ega parrandalar g'oz, kurka va tuyaqushlardir.

Katta yoshdagagi kurkalar 14-20 kg va undan ortiq, g'ozlar 6-8 kg, o'rdaklar 3-4 kg, tovuqlar 2-4 kg, sesarkalar 1,5-2,5 kg, bedanalar 0,12-0,15 kg tosh bosadi.

Parranda vazni jinsi bo'yicha farqlanadi. Odatta erkaklari urg'ochilariga nisbatan yirikroq bo'ladi. Bunda bedana va sesarkalarni hisobga olmaganda. Kurkalarning erkagi urg'ochisiga nisbatan 1,5-2 marta vazni ko'p, tovuq, o'rdak va g'ozlarniki 20-25 % farqlanadi.

Parrandalarning tirik vazni yoshiga bog'liq holda o'zgarib boradi. Birinchi yilda parrandalarning vaznida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'ladi va ikkinchi davridan boshlab kamayib boradi.

Yosh parrandalarning o'sish sur'ati muayyan parvarishlash davri uchun mutlaq, o'rtacha sutkalik va nisbiy tirik vazni o'sish sur'atlari orqali farqlanadi.

Hisobot davri uchun mutlaq o'sish (A) formula bo'yicha hisoblanadi.

$$A = M_o - M_b \quad (7)$$

Bu yerda M_o - hisobga olish davri oxiriga tirik vazni, kg;

M_b - hisobga olish davri boshiga tirik vazni, kg.

O'rtacha sutkalik o'sim (\bar{S}) formula asosida bilan aniqlanadi

$$\bar{S} = \frac{M_o - M_b}{T} = \frac{A}{T} \quad (8)$$

Bu yerda T-hisobot davri davomiyligi, sutka

Go'sht yetishtirishda yosh va katta yoshdagagi parrandalarning saqlash darajasi(xavfsizligi) katta ahamiyatga ega. Bu formula bilan aniqlanadi

$$S_x = \frac{P_o * 100}{P_b} \quad (9)$$

gde P_o - o'sish davri oxiriga yetgan parrandalar soni;

P_b - parvarishlash paytida parrandalarning dastlabki soni.

Parrandachilik mahsulotlari mahsulorligini to'gri aniqlash parranda mahsulotlari hajmini hisoblashda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa va takliflar. Surxondaryo viloyatida parrandachilik mahsulotlari asosan parrandalar sonining ko'payishi hisobiga o'zgargan. Parrandalar sonining turli xo'jaliklar toifalari bo'yicha turlicha o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. O'tgan davrlarda parrandachilik mahsulotlari asosan aholi xo'jaliklariga to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirgi vaqtida qishloq xo'jalik korxonalarini va aholi xo'jaliklarining ulushi kamayib, fermer xo'jaliklari ulushining ko'payshi tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Ko'pgina davlatlarda parrandachilik mahsulotlari asosan qishloq xo'jalik korxonalarini hissasiga to'g'ri keladi.

Parrandachilikda barcha yetarli shart-sharoitlar mavjud bo'lganda uning rivojlanishiga mavsumiylig darajasi ta'siri kam bo'ladi. Bunday holatni sanoat asosiga ko'chirilgan xo'jaliklarda kuzatish mumkin. Aholi xo'jaliklarda bunday sharoitni har doim ham ta'minlab bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik korxonalarida va fermer xo'jaliklarda bunday sharoitni ta'minlash mumkin. Shuning uchun bu toifadagi xo'jaliklarda parrandachilik mahsulotlari ko'paygan;

Keyingi yillarda go'sht mahsulotlarining narxi sezilarli darajada oshdi. Bunga asosiy sabab ularni yetishtirish bilan bog'liq xarajatlari ko'payganligidir. Parrandachilik asosan mahsulotlari tez yetiluvchi va kam xarajat talab etilishi hamda ularning tez qoplanishi sababli ularga bo'lgan talab oshgan.

Hukumat tomonidan parrandachilikni rivojlantirish va eksport faoliyatini rag'batlantirish barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoxda. Bu esa par-

randachilik mahsulotlarining ko'payishiga va mahsulorligining ortishiga olib keladi.

Yuqorida fiklardan kelib chiqib, Surxondaryo viloyatida parrandachilik sohasini yanada rivojlantirish uchun avvalo bu sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etib, ishlab chiqarish jarayonlarni modernizatsiya qilish va tayyor mahsulotlari eksportini kengaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Surxondaryo viloyatida parrandalarning boshqa turlarini rivojlantirishni ommalashtirish zarur. Hududlarning shart-sharoitlaridan kelib parrandalarning boshqa turlari: o'rdak, g'oz, kurka, bedana, kaklik, tustovuq yetishtirish bilan shug'ullanadigan xo'jaliklarni tashkil etish zarur;

- Parrandachilik mahsulotlarini tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarishni nafaqat ko'paytirish bilan birga ularni qayta ishlash orqali mahsulot eksportini ko'paytirish hamda parrandachilik chiqindilarni qayta ishlashni yo'lga qo'yish;

- Parrandachilik sohasining atrof muhitga tasirini kamaytirish, parranda kasalliklarini o'z vaqtida bartaraf etish va ekologik toza mahsulot yetishtirishga e'tibor berish;

- Viloyat hududida parranda mahsulotlari yetishtirishda import o'rnnini bosuvchi to'yimli omuxta va vitaminlashtirilgan yem ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- Parrandachilikni rivojlantirishda parrandachilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarda shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarini tayyorlash va aholi xo'jaliklarda ularning tajribalarini oshirish.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4015-soni Qarori. 2018-yil 13-noyabr <http://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. <http://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-281-soni Qarori. Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2022-yil.
4. Афанасьев В.Н., Маркова А.И.(2003), Статистика сельского хозяйства: Учебное пособие.- М:Финансы и статистика, 272 стр.
5. Быкова Н.В.(2018) Значение отрасли птицеводства в обеспечение продовольственной безопасности. Вестник АПК Верхнеоволжья №1(41) март.
6. Гуляева Л.В.,Распутина А.В.(2007) Современные состояния и тенденции развития птицеводческих организаций Иркутской области. Известия ИГЭА №6 (56).
7. Дардев.Е.С. Статистический анализ и прогнозирование производства основных видов продукции животноводства(2011). Монография –М: ИНО, 109 с.
8. Нечаев В.И, Бершицкий Ю.И, Фетисов С.Д, Слепнева Т.Н. (2010) Современное состояние и тенденции развития птицеводства в России. Монография, Краснодар, 150 стр.
9. Рахманкулов Х.Р. (1969) Резервы снижения себестоимости продукции и повышения рентабельности животноводства в колхозах Сурхандарьинской области. Автореферат диссертации по соисканию ученой степени кандидата экономических наук. (22 стр) Ташкент.
10. Xatamov O., Bobomuratov I. (2019) Parrandachilikni rivojlantirishning hududiy-iqtisodiy statistik tahlili. Agroiqtisodiyot. Ilmiy-amaliy agroiqtisodiy journal. 4(14) 64-66 b.
11. Xasanov A.A.(2019) Chorvachilik mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarishning statistik tadqiqoti (Surxondaryo viloyati misolida) (b) Toshkent.
12. Abduramonov M.A. Qishloq xo'jaligi statistikasi - (o'quv qo'llanma). -T.: TDIU, 2004, - 96 bet.
13. Jo'rayev F.D., Aralov G'M. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanish tendensiyasini statistik tahlili Multidisciplinary Scientific Journal April, 2023 (31-43) <http://sjifactor.com/passport.php?id=22258>
14. Bobomuratov I.I. Current state and trends in the development of poultry farming on the example of Surkhandaryam region Academicia AnInternational Multidisciplinary Research Journal <http://doi: 10.5958/2249-7137.2020.01293.8> Vol. 10 Issue 11, November 2020
15. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi sayti
16. www.surxon.stat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi sayti
17. <https://poultry.uz/ru>
18. <https://agrovesti.net> Профессионально об АПК